

ISLOM TA'LIMOTIGA YUNON FALSAFASINING TA'SIRI

Husen Xayrulloevich JO'RAYEV,

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

husaynbuxoriy@mail.ru

Bunyod RAXIMOV,

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, yo'nalishi 5.2 – ITM 21 guruhi talabasi

Bunyodraximov4417@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada islom dinining paydo bo'lishi, islom olamiga falsafaning kirib kelishi va guruhlariga bo'linishi hamda islom ta'limo tining shakllanishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, yunon falsafasining ta'sir doirasi va islom olamiga kirib kelishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: islom dini, falsafa, ellin madaniyat, Muhammad (s.a.v), yangi platonchilik, yunon falsafasi, Iskandariya, Jondishopur, Harron tarjima maktablari, xalifa Ma'mun, ratsionalizm, mo'taziliylar, shialar, ahli sunna val-jamoa, Horun arRashid, emmanatsiya, aristotelizm, yangi pifagorchilik.

ВЛИЯНИЕ ГРЕЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ НА ИСЛАМСКОЕ УЧЕНИЕ АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о возникновении ислама, приходе философии в исламский мир и ее разделении на группы, а также о формировании исламского образования. Также рассматривается сфера влияния греческой философии и ее проникновение в исламский мир.

Ключевые слова: ислам, философия, эллинистический культура, Мухаммад (с.а.в), новый платонизм, греческая философия, переводческие школы Александрии, джондишопура, Харрона, Халифа Мамун, рационализм, мутазилиты, шииты, Ахли Сунна валь-Джамаа, Аарон аррашид, Эммануил, Аристотель, новый пифагореизм

INFLUENCE OF GREEK PHILOSOPHY ON ISLAMIC TEACHING

ABSTRACT

This article talks about the emergence of Islam, the introduction of philosophy into the Islamic world and its division into groups, and the formation of Islamic education. Also, the influence of Greek philosophy and its penetration into the Islamic world are considered

Key words: *Islamic religion, philosophy, Hellenistic culture, Muhammad (pbuh), New Platonism, Greek philosophy, Alexandria, Jondishopur, Harran translation schools, Caliph Ma'mun, rationalism, Mu'tazilites, Shiites, Ahl asSunna wal-Jama'a, Harun al-Rashid, emanation, Aristotelianism, new Pythagoreanism.*

KIRISH

Islom falsafasining rivojlanishida yunon falsafiy ta'limotining ahamiyati katta. O'zaro madaniyatlar almashinuvi yunon ta'limotlari bilan uzviy bog'liq. Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi: nega aynan yunon falsafasi ta'sir etgan? Ayni u davrlarda boshqa ta'limotlar ham mavjud bo'lgan-ku? Bu savolga javob olish uchun eng avvalo islom dinining paydo bo'lgan davrlari va undan oldingi vaqtga nazar solsak, bizga bir qancha muhim voqealar shohidlik qilishi mumkin. Islom dini paydo bo'lgach, fath etilgan hududlarga e'tibor beradigan bo'lsak, xalifalik tasarrufida bo'lgan yerlarda avvaldan ellinistik madaniyat mavjud edi. Ellinistik davr miloddan avvalgi IV asr Aleksandr Makedoniyskiyning Sharqiy O'rtayer dengizi, Eron platosi, Mesapotamiya, Misr, O'rta Osiyo hamda Hindistonning ba'zi bir hududlarini bosib olishi bilan boshlangan.

Buning natijasida bosib olingan yerlarga yunon tili va yunon madaniyati tarqala boshlagan. Yunon tili esa ilmiy til darajasiga ko'tarilgan. Hattoki, yunon matematikasi Bobil va Misr matematikasi bilan birlashib, yagona bir ellinistik matematikani keltirib chiqardi. Chunki madaniyatlar aralashuvi natijasi butun sohalarni qamrab oladi va yangi madaniyat hosil qiladi. Lekin yunon madaniyati bu o'rinda ancha sezilarli kuch hisoblangan. Shu sababli uning ta'sir doirasi juda katta edi. Yunon tilini o'rganish Iroq va Suriyada IV asrda boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Ellinistik davrda klassik yunon falsafasi bir qancha o'zgarishlarga uchradi. Unda yunon, finikiyaliklar, misrliklar, boshqa Yaqin Sharq madaniyati hamda axloqiy va diniy qarashlari birlashdi. Buning eng muhim ko'rinishlari Iskandariyadagi vujudga kelgan falsafani tashkil etuvchi turli xil qarashlar hisoblanadi. Shuningdek, Iskandariyada VII asrdan boshlab, falsafa va ilohiyot tadqiqoti shakllana boshladi. Asosan yunon tilini o'rganish, Iskandariyadan o'tgan yunon ilohiyotini, Kliment

ta'limotlarini o'rganishdan boshlangan edi. VII asrda Eron janubida yunon ilmlarini o'rganadigan ikki katta markaz faoliyati mavjud edi. Bu Harron va Jandishpur maktablaridir. Jandishpur 555- yilda Xusrav I Anushervon tomonidan asos solingan. Xitiyning ma'lumotlariga ko'ra, Jandishpurdagi muassasada fanlar yunon an'analari asoslangan, ammo o'qitish tili oromiy bo'lgan. Bu kabi muassasalar 8-asrgacha faoliyat yuritdi, islom olamida falsafa va ilm-fan uchun asosli manba vazifasini bajargan. Islom dini paydo bo'lgach, o'zidan takrorlanmas madaniyat va katta bir sivilizatsiya yaratdi.

U Rim, Yunon, Hindistan va Eron madaniyatlari qurshovidagi arab xalqlari orasida yuzaga keldi. Bu insoniyat tarixidagi ajralib turuvchi voqeadir. Chunki arablar badaviy xalq edi, ya'ni islomgacha madaniyati pastroq xalq hisoblangan. Ular yashaydigan hududlarning ko'p qismini cho'llar tashkil etgan, yerlarning aksariyat qismi o'troq turmush tarziga yaroqli emas edi. Ushbu omil sababli arablarning ba'zi qismi ko'chmamchi jamoa bo'lib yashaganlar. Ular deyarli madaniyatli hayot bilan bog'liq bo'lmaganlar. Bu haqda Inoyatulloh xabar beradi. Shunday bo'lishiga qaramay, islom dini katta bir madaniyat yaratdi. Islom dini arab-musulmon jamiyatiga boshqa madaniyatlardan farqli bir madaniyat berdi. Yangi tug'ilgan arab-musulmon jamiyati atrofidagi boshqa madaniyatlar va sivilizatsiyalarini o'rgandilar. Chunki har qanday madaniyat o'zidan avvalgi madaniyatlar ta'siri moslashinuvini namoyon etadi hamda mavjud jamiyatlardagi madaniyatlar bilan almashinuvini aks ettiradi. Shu ma'noda arab-musulmon jamiyati atrofidagi boshqa xalqlar, xususan, Hindiston, Fors, Misr, Rim, Suriya va Yunon xalqlari bilan madaniyat va sivilizatsiyalar o'rtasida aloqalar kuzatildi.

Bu aloqalarni islom xalifalari, ya'ni Muhammad (s.a.v) dan keyingi to'rt xalifa davridan Abbosiylargacha bo'lgan vaqtda o'sha hududlarga qilingan harbiy yurishlar bilan belgilanadi. Olimlarning e'tirof etishiga ko'ra, islom ulamolari boshqa xalqlar madaniyatini o'rganish bilan birga musulmon bo'lmagan adabiyotlarni arab tiliga tarjima qilish boshlandi. Bu voqea xalifa Horun ar-Rashid davrida "Xizona ul-hikma" hamda xalifa Ma'mun davridagi "Bayt ul-hikma" ilmiy muassasalarining faoliyatlari amalga oshirilgan oltin davri edi. Tarjimonliklarning barchasi Abbosiylar hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Mumtoz davrda islom jamiyati noislomiy bo'lgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish vazifasini bajardi. Bunda ellinizmning ta'siri alohida jihatga ega. Shunga qaramay, ayni o'sha vaqtlarda ellinizm bilan yonma yon fors va hind falsafalari ham mavjud edi. Lekin ellinizmning ta'sir doirasi ularnikidan ko'proq vazifani bajargan.

Yunon falsafasi va fanining arab tiliga tarjima qilingan adabiyotlari nafaqat yunon adabiyotlari, balki Iskandar vafotidan keyingi ellin adabiyotlarni ham tashkil

etgan. Ba'zi mutaxassislar yunon falsafasi va ellinistik falsafani ayni bir falsafa deb hisoblamaydilar. Shuning uchun ham islomning yunon falsafasi va ilmi yoki ellinizm bilan aloqasi to'grisidagi munozaralar mavjud. Ana endi bizning e'tiborimizda bir qancha masalalar bor: islom ellinizm bilan qachondan aloqada bo'la boshladi va qanday omillar bunga turtki bo'lgan, yunon falsafasining ta'siri qay darajada ekanligi. Buni tahlil etishda tarixiy davr yondashuvi eng ahamiyatlisidir.

Islom ellinizm bilan aloqasi haqidagi nazariyalar Nurcholish Majidning fikricha “ellinizm” atamasini ilk bor nemis tarixchisi J.G. Droysen qadimgi yunon va nasroniy dunyosi o'rtasidagi o'tish davriga nisbatan ishora qilish uchun qo'llagan. Droysendan farqli o'lariq Bernard Luis va K. Xitti kabi bir qancha tarixchilar “ellinizm” atamasini qadimgi yunon va Buyuk Iskandar vafotidan keyingi yunon davrigacha bo'lgan yunon madaniyatini qabul qilish uchun ishlatishgan. Tadqiqotlarga ko'ra, islomning ellinizm bilan aloqasi haqida ikki nazariya mavjud ekan.

Birinchi nazariya V. Montgomeri Vatt tomonidan taklif etilgan. U islom va ellinizm o'rtasidagi asosiy aloqa VIII-asr o'rtalarida Abbosiylar sulolasi davrida sodir bo'lganligini ta'kidlaydi. Buni Vatt “ellinizmning birinchi to'lqini” deb atagan. U birinchi to'lqinni yunon madaniyatini o'rganishdagi birinchi davriga nisbatan qo'llaganligini nazarda tutadi, shuningdek, uning ma'lum jihatdan cheklangabligini ham aytib o'tadi. Bu davr munozara usullari ehtiyoji uchun, musulmon jamoalar o'rtasidagi tortishuv yoki musulmon bo'lmagan guruhlar bilan bahs-munozaralar uchun cheklangan edi. Islom falsafasining taraqqiyotining ikkinchi bosqichi X-XI-asrlar atrofida ro'y berdi. Vatt bu davrni “Falsafaning gullashi” islom falsafasi va ellinizm dialektikasining rivojlangan payti deb aytgan. Ammo Vatt nazariyasiga qarshi chiqqanlar ham mavjud edi. Bu Majid Faxriydir, u o'zining “Islom falsafasi tarixi” kitobida qarshi fikrlarini bildirgan. Uning fikriga ko'ra, islom va ellinizm o'rtasidagi aloqa Muoviylar sulolasi hukmronligidan beri VII asrda yuzaga kelib ulgurgan. Bu sulola hukmronlik davrida yunon ilmiy me'rosi o'rganildi va o'zlashtirildi. Faktlarga asosan, VII-asrdayoq ellinizm madaniyati haqida xabardor bo'lishgan. Amaliy va ijtimoiy ehtiyojlar uchun ham, ya'ni ma'muriyat, hukumat boshqaruvi, sog'liqni saqlash hamda harbiy masalalarda ba'zan unga murojaat etilgan. Majid Faxriy ta'kidlaydiki, bu Muoviylar sulolasi hukmronligida musulmonlar va ellinizm o'rtasidagi aloqa hali mukammal bo'lmagan, ammo bu o'zaro aloqa ahamiyatsiz degani emas. Asrlar ilgari Suriya va Misr nasroniylarini yunon falsafasi o'rganishni talab etilganidek, musulmolar ham sxolastik ilohiyotni o'rganishgan.

Umaviylar (661-750) davrida bu yo'nalish katta muvoffaqiyatga erisha olmadi. Chunki Ummaviy xalifalarning dastlabki xalifalari bosib olingan hududlarda tinchlikni ta'minlash, hukmronligini mustahkamlash, ulkan hududlarni boshqarushdagi

ma'muriy va siyosiy masalar bilan band bo'lgan. Ammo ilmga talabchan ekanliklarini inkor etib bo'lmaydi. Bunga misol Ummaviy shahzodasi Xolid ibn Yazidni (vafoti 704-yil) keltirish mumkin. U alkimyo va munajjimlik ilmlari bilan shug'ullangan, hatto, eng qadimgi manbalarning guvohlik berishicha ilmiy asarlarning, xususan, tibbiy, alkimyoviy, astrologik adabiyotlarni arab tiliga birinchi tarjimalarini taqdim etgan. etishda hissa qo'shgan shaxslardan biri deb qaraladi. Bu dalilni Filip. K.Xiti ham ta'kidlaydi, hatto Xolid ibn Yazidni Marvoniylar faylasufi deb atagan.

Islom falsafasi bilan aloqada bo'lgan yunon falsafasi islom dunyosida falsafaning rivojlanishiga turtki bo'lganligini ko'pchilik e'tirof etadi. Lekin shunga qaramay, Kentukki (AQSH) universiteti sharqshunosi Oliver Liaman islom falsafasini aynan o'sha yunon matnlari tarjimasidan kelib chiqqan deyish xato ekanligi tarafdoridir. "Yunon falsafasi va mantig'i ma'lum bo'lmasdan oldin, islom ilmiy an'analari, huquqshunoslik va ilohiyot fanlari orqali yanada aniq falsafa vujudga kelgan. Hatto, bu huquq va ilohiyotning tafakkuri yunon mantig'i va falsafasining qabul qilinishi va rivojlanishiga asos bo'lgan. A.Xudori Shorch Oliver Liamanning bu fikrlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga o'zining qarashlarini ham aytib o'tadi, ya'ni islom falsafasi islom ilmiy an'analari bilan tarjima jarayoni orqali aloqada bo'lgan yunon falsafasiga asoslanmagan, balki u islom falsafasi ildizi orqali rivojlangan degan g'oyani beradi.

Ammo Oliver Liamandan farqli ravishda, ko'pchilik olimlar islom ilmiy me'rosi hamda falsafasi yunon falsafiy tafakkuri aloqasi natijasida rivojlanganligini da'vo qiladilar. Bu jarayon ayniqsa, arab-musulmon jamiyati musulmon bo'lmagan jamoalar, xususan, Misr, Antioxiya, Fors va Suriyadagi majusiy guruhlar nasroniy va yahudiylari bilan aloqada bo'lganidan keyin sodir bo'ladi. Bu hududlar ancha vaqt mobaynida ellinizatsiyani boshidan kechirgan, fikrlar va yunon tafakkuri keng yoyilgan. Ilk islom jamoatchiligi Qur'on va Payg'ambar sunnatini tushinishda uch turdagi ilm sohasi talab etilishini Majid Faxriy ta'kidlaydi. Islomning yunon falsafasi va madaniyati bilan aloqasini ellinizmning jadal rivojlanishidan ajratib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ellinizm Iskandarning Yunonistondan Sharqqa harbiy yurishlari natijasida paydo bo'ldi. Bu mustamlakachilikning kengayishi sababi nafaqat siyosiy, balki uning madaniyatini birlashtirish uchun ham edi. Ilmiy jihatdan buni pan-ellinizm deya qabul qilinadi. Shuningdek, Aristotel Iskandarning ustozlari sifatidagi ta'limotlari bilan bog'liqligini ham dalil qilib ko'rsatishadi. Ellinizm madaniyatning o'zi xudo, falsafa, axloq, din va madaniyat masalalaridan hamda mifalogiyadan iboratdir.

Umuman olganda, keyingi davrlarga kelib falsafiy tafakkurga yunon falsafasining ta'siri yunon tilidagi asarlar tarjimasini bilan bog'liq. Xalifalar bu asarlarni

tarjima qildira boshladilar. Xalifa Ma'mun yunon tilini biladigan olimlarni yig'di va tarjima qilishlariga sharoit yaratdi. Bu haqda Ibn Xaldun ma'lumot beradi: "Bizgacha faqat bir xalqning, ya'ni yunonlarning bilimlari yetib kelgan, chunki xalifa Ma'mun harakatlari bilan tarjima qildirildi. U bunga ko'plab sarf-xarajatlar qildi va muvoffaqiyatga erishdi...". Ma'mun xalifalik davrida ijtimoiy muhit yaxshi va tinch edi. Ilm fan uchun imkoniyatlar mavjud edi. Urushlar tugab, ma'naviyat tiklana boshlagach, fath etilgan hududlardagi kutubxonalaridagi asarlarni tarjimasi haqida qiziqish uyg'ondi. Tarjima qilinishining asosiy sababi deb tibbiyotga oid ma'lumotlarga ega bo'lish nazarda tutiladi. Chunki manbalarga ko'ra, dastlabki tarjimalar tibbiy va alkimyoviy mavzularda edi. Shuningdek, Umaviy xalifalari davrida shifokorlar saroy tabibi bo'lishi bilan birga hukmdorlarga maslahatchi vazifasini ham bajarganlar. Natijada Umaviylar salomatlikka oid ma'lumotlarga ega bo'lish, amaliy ehtiyojlarni bilishlariga bo'lgan harakat ellinizm madaniyatini o'rganishga talab bo'lgan. Tibbiy adabiyotlarni ajratish va o'rganish ortidan falsafiy asarlar tarjimasi ham amalga oshgan. Natijada hamma yunon tilidagi asarlar tarjima qilina boshlandi. Bular orasida ko'p qismini falsafaga oid bo'lgan kitoblar tashkil etardi. Tarjimonlar orasida musulmon bo'lmagan olimlar ham tashkil etgan.

Dastlabki paytlarda islom olamiga kirib kelayotgan yunon-ellinistik tafakkur yaxshi qabul qilinmagan. Shubhali tarzda chetdan kirib kelgan yoki butparastlikka asoslangan deya qabul qilindi. Uni bir qancha dinshunoslar, huquqshunoslar inkor etishdi. Zararli va ortiqcha deb tushinilishlar ham bo'ldi. Ammo milodiy VIII asr o'rtalariga kelib, nutq va dialektikadan ta'sirlangan mo'taziliylar oqimi islom olamida ratsionalist teologlar sifatida paydo bo'ldilar. Ular har bir narsada aqlni da'vo qiluvchi guruh hisoblanadi.

Arab-musulmon va g'ayriarabiy guruhlar o'rtasidagi ijobiy aloqalar bag'rikenglik, erkinlik bor vaziyatlarda shakllangan edi. Arablar o'z diining aniq qonun-qoidalaridan qat'iy nazar, o'zidan avvalgi mavjud bo'lgan barcha intellektual faoliyatlarni cheklab qo'ymadi, davom etishlariga yo'l qo'yib berdilar. Nasroniylar boshchiligidagi ilmiy markazlar musulmonlar tomonidan bo'ysundirilgandan so'ng o'z faoliyatlarini to'xtatmaganlar. Bu o'sha davrdagi musulmonlar hukmronligida fikriy erkinlik va ilm-fan uchun xayrixohlikdan, uni qadrlashdan, dinidan qat'iy nazar olimlarni hurmat qilishdan dalolat edi. Umaviylar musulmonlar va nasroniylar o'rtasida ellinistik atamalarni musulmonlar ilohiyotiga kirib kelishiga olib kelgan rasmiy munozaralarga homiylik qilgan. Bundan ko'rinadiki, 7-asrning oxirlarida ellinizm orqali islomning yunon falsafasi va bilimlari bilan aloqa vujudga keldi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayotlik davrlarida musulmonlar orasida shubhaga o'rin bo'luvchi birliklar mavjud bo'lmagan. Chunki har bir masala uchun

Payg'ambarimizning o'zlari tirik isbot edilar. Payg'ambarimizdan so'ng, xalifalik davrida esa bir qancha masalalarda tortishuv va ikkilanishlar yuzaga kela boshladi. Natijada islomda bo'linishlar yuzaga keldi. Bu orada tarafkashliklar ham mavjud edi.

Arab-musulmon jamoasida 7-asr oxirlariga kelib, Allohning adolati va insoniy mas'uliyat haqida mulohazalar paydo bo'la boshladi. Fiqh, kalom kabi ilmlarida oqilona fikrlash keng rivojlandi. Ilohiyotda Vosil ibn Ato asos solgan ratsionalizmni ustun qo'yuvchi mo'taziliya ta'limoti jamiyat tafakkurida hukmronlik qilgan. Hattoki ba'zi vaqtlarda davlat va uning turli tarmoqlarida rasmiy ta'limotga ham aylangan. Hayid Husan Nastning fikricha, bu mo'taziliya mazhabi islomdagi birinchi tizimli ilohiyotdir. Ularning muhim xususiyatlaridan biri aql va qadriyat e'tiqodiga asoslanishidir. Ammo bunga qarshi tarzda Nurcholish Majidning fikri bor.

U ta'kidlaydi, diniy tafakkurda yunoncha unsurdan birinchi bo'lib foydalangan shaxs Jabariya ta'limotiga e'tiqod qilgan Jahm ibn Shafvon hisoblanadi. Jabariyaga ko'ra inson Allohning irodasiga qarshi hech qanday kuchga ega emas deb hisoblanuvchi ta'limotni ilgari suradi. Jahm ibn Shafvon o'zining jabariy mulohazalari uchun birlik va vositalarni Aristotelning bir tarmog'i bo'lgan Aristotelizmdan to'plaga. Unda sodir bo'layotgan hamma narsa, xususan, inson bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar tabiiy qonunlar asosida sodir bo'ladi, tabiiy qonun shaxssiz bo'lib, inson tomonidan e'tiroz bildirilmaydi. Shuningdek, vaqt o'tgan sari Qur'on oyatlarini o'rganishdagi muammolarga tor yondashuv turli munozaralarni keltirdi. Damashq yoki Bag'doddagi musulmonlar bilan mazujiy va nasroniylar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ham keskin kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Shu sabaldan musulmon jamoalar o'rtasida turli mulohazalar hozil bo'ldi. Falsafiy tafakkurga qiziqish, muqaddas Kitobga nisbatan fikrlash samarasi edi. Ya'ni Qur'onni o'rganish va tushunish. Diniy aqidalarni tizimli tushunishga bo'lgan intilish, mo'taziliya guruhini tobora ratsionalizatsiya qilishga undadi. Islomda ratsionalizatsiyani rivojlantirishda mo'taziliya maktabining ta'siri juda katta. Bu ratsionalizatsiya ratsional va liberal yunon falsafasi usulidan olingan. Ularda dinshunos mutaxassisning falsafani o'rganishga ikki sababi bor ekanligi ta'kidlanadi. Birinchidan, ular yunon falsafasi o'zlarining fikrlash tarzi bilan yaqinlik va uyg'unlik bor ekanligini bildilar.

Bunday fikrlash usulini qo'llash orqali ularni o'z dalillarini ko'rsatishda kuchli va ravon qildi. Ikkinchidan ular mantiq va mantiqiy dalillar yordamida islom ta'limoti asoslarini parchalashga uringan boshqalarini bahslash va rad etish maqsadida falsafiy fikrlash usulini o'rgandilar. Mo'taziliylardan keyin Ismoililar ta'limotlari ajralib turadi. Ular shialikda shakllanib, IX-asr oxirlarida diniy firqa sifatida tashkil topdi va maxfiy tashkilot tuzdilar. Shu davrda yunon falsafasi, neoplatonizm, neopifagorsizm,

xristian gnostitsizmi va boshqa oqimlar ta'siri ostida Ismoilylarning murakkab diniy-falsafiy tizimi shakllandi. Ularda asosan ko'zga ko'ringan jihati emmanatsiya masalasi hisoblanadi. Botiniy ta'limotga ko'ra, ular 7 ta pog'onaga ajratadilar.

XULOSA:

Yunon falsafasining Islom ta'limotiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy va madaniy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. VIII–XII asrlar oralig'ida musulmon olimlari Yunon falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Platon, Pifagor, va Galen singari mutafakkirlarning asarlarini arab tiliga tarjima qilish va sharhlash ishlariga katta e'tibor qaratganlar. Bu jarayonda Baytul Hikma (Donishmandlar uyi) kabi ilmiy markazlar markaziy rol o'ynagan. Islom tafakkuri bilan Yunon falsafasining uyg'unlashuvi natijasida yangi, sintezga asoslangan ilmiy va falsafiy yondashuvlar yuzaga keldi. Al-Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi allomalar Yunon falsafasini o'zlashtiribgina qolmay, uni tanqidiy tahlil qilish orqali islomiy aqidalar bilan uyg'unlashtirganlar. Ularning asarlari nafaqat Islom olamida, balki keyinchalik Yevropa ilm-fan rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Yunon falsafasidan olingan mantiq, metafizika, tabiiy fanlar va tibbiyotga oid qarashlar islomiy ilmlar – xususan, kalom, fiqh, falsafa va tasavvufda yangicha tafsir va tushunchalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu esa Islom sivilizatsiyasining ilmiy va madaniy yuksalishiga turtki berdi.

Xulosa qilib aytganda, Yunon falsafasining Islom ta'limotiga ta'siri bu ikki buyuk madaniyat o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarning samarali mevasidir. Bu ta'sir nafaqat ilmiy taraqqiyotga, balki tafakkur erkinligi, tanqidiy fikrlash va ilmga asoslangan yondashuvlarning rivojlanishiga ham asos bo'ldi. Shu sababli, Islom tarixidagi bu davr "Islomiy Uyg'onish" deb atalishi bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.A.Po'latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov „Sharq falsafasi va madaniyati tarixi"(1-qism) Toshkent2018
2. Pepen Irpan Fauzan,Ahmad Khoirul Fata „HELLENISM IN ISLAM:The Influence of Greek in Islamic Scientific Tradition" <https://www.rep.routledge.com> sayti
3. <https://link.springer.com> sayti
4. D.A.Po'latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov „Sharq falsafasi va madaniyati tarixi"(II qism) Toshkent2018
5. Сулаймонов, Ж.Б. (2023). Абдурахмон ибн Халдун ижтимоий қарашлари ва конфуций ижтимоий қарашларининг умумий ва фарқли хусусиятлари.

Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(21), 583-590.

6. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Analysis of the Phenomenon of "Assabiya" In the Socio-Philosophical Concept of Abdurahman IBN Khaldun. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(6), 219-223.